

**TURKIYADA XOTIN-QIZLAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA
TIBBIY XIZMAT TARIXI (1920-1950)****Nazarkulova Nodira Baxtiyor qizi***Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***Yo'ldosheva Kamola Ilhomovna***Toshkent Davlat Sharqshunoslik**universiteti 1-bosqich magistranti***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola 1920-1950 yillarda Turkiya Respublikasida xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish va tibbiy xizmatning tarixiy rivojlanish jarayonini o'rganadi. Tadqiqotda Sog'liq Vazirligining tashkil etilishi, Umumiy Gigiyena Qonuni, tug'ruq uylari va kasalxonalar kengayishi, shuningdek, sifilis, bezgak va o'pka sili kabi kasalliklar kampaniyalari tahlil qilinadi. Ayollar salomatligi "milliy sarmoya" sifatida ko'rilgan bo'lsa-da, patriarxal tuzum, resurslar yetishmasligi va qishloq-shahar farqlari muammolari saqlanib qolgan. Natijada, davr yutuqlari (tibbiy xodimlar soni o'sishi, kasalliklar nazorati) va cheklovlari baholanadi. Tadqiqot tarixiy hujjatlar va statistikalarga asoslangan bo'lib, ayollar salomatligining jamiyatdagi gender dinamikasini aks ettirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Turkiya Respublikasi, xotin-qizlar salomatligi, tibbiy xizmatlar, pro-natalistik siyosatlar, Umumiy Gigiyena Qonuni, kasalliklar bilan kurash, ona-bola himoyasi, gender ideologiyasi, modernizatsiya va demografik o'zgarishlar, sifilis, bezgak, o'pka sili.

ABSTRACT

This thesis examines the historical development of women's health protection and medical services in the Republic of Turkey from 1920 to 1950. The study analyzes the formation of the Ministry of Health, the Public Hygiene Law, the expansion of maternity hospitals and clinics, as well as campaigns against syphilis, malaria and tuberculosis. Although women's health was viewed as a "national asset," challenges such as patriarchal structures, resource shortages, and rural-urban disparities persisted. The results evaluate the achievements (increase in medical personnel, disease control) and limitations of the period. Based on historical documents and statistics, the research highlights how women's health reflected societal gender dynamics.

Keywords: Republic of Turkey, women's health, medical services, pro-natalist policies, Public Hygiene Law, disease control, maternal-child protection, gender ideology, modernization and demographic changes, syphilis, malaria, tuberculosis.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается исторический процесс развития охраны здоровья женщин и системы медицинского обслуживания в Республике Турция в 1920–1950 годах. В исследовании анализируются создание Министерства здравоохранения, принятие Закона об общей гигиене, расширение родильных домов и больниц, а также кампании по борьбе с такими заболеваниями, как сифилис, малярия и туберкулёз. Хотя здоровье женщин рассматривалось как «национальный капитал», сохранялись такие проблемы, как патриархальные структуры, нехватка ресурсов и различия между сельскими и городскими районами. В результате оцениваются как достижения периода (рост числа медицинских работников, контроль над заболеваниями), так и его ограничения. Исследование основано на исторических документах и статистических данных и показывает, что состояние здоровья женщин отражало гендерную динамику общества.

Ключевые слова: Республика Турция, здоровье женщин, медицинские услуги, пронаталистская политика, Закон об общей гигиене, борьба с заболеваниями, охрана материнства и детства, гендерная идеология, модернизация и демографические изменения, сифилис, малярия, туберкулёз.

KIRISH

Turkiya Respublikasi tashkil topgan davr (1923-yil) va keyingi o'n yilliklar xotin-qizlar salomatligini himoya qilish sohasida muhim o'zgarishlarga guvoh bo'ldi va bu jarayon sog'liqni saqlash siyosati milliy modernizatsiya va aholini ko'paytirish maqsadlari bilan chambarchas bog'liq edi (Yıldırım, 2022, pp. 23–28; Dedeoğlu, 2015, pp. 19–22). 1920-yillarning boshida Turkiya Buyuk Milliy Majlisi (TBMM) tashkil etilishi bilan birga, Sog'liq va Ijtimoiy Yordam Vazirligi (1920-yil 3-may) tashkil etildi (Resmi Gazete, 1920, Sayı 13; Dedeoğlu, 2015, p. 31), bu esa xotin-qizlar salomatligini davlat nazorati ostiga olishning birinchi qadami bo'ldi (Yıldırım, 2022, pp. 45–48). Tadqiqotda 1920-1950-yillarda xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish va tibbiy xizmatlarning tarixiy rivojlanishi tahlil qilinadi.

Maqsad – bu davrda amalga oshirilgan siyosatlar, institutlar va natijalarni ko'rib chiqish orqali ayollar salomatligining milliy rivojlanishdagi o'rnini baholash (Yıldırım, 2022, pp. 15–17). Tadqiqot tarixiy tahlil va rasmiy hujjatlar (masalan, Umumiy Gigiyena Qonuni)ga asoslangan bo'lib, pro-natalistik (tug'ilishni rag'batlantiruvchi) siyosatlarining ta'sirini ta'kidlaydi (Dedeoğlu, 2015, pp. 56–62; Cumhuriyetin 100. yılında kadın sağlığına bakış, 2023, pp. 112–114). Davr chegarasi 1920-yil (Respublika tashkil topishi)dan 1950-yilgacha (demografik o'tish boshlanishi)ni qamrab oladi. Mazkur tadqiqot Turkiya sog'liq tizimi tarixida gender masalasining o'rganilmagan jihatlarini yoritishi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

1920–1950-yillarda Turkiyada xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish masalasi bo'yicha mavjud adabiyotlar asosan sog'liqni saqlash siyosati, modernizatsiya jarayonlari va gender munosabatlari doirasida keng o'rganilgan (Yıldırım, 2022, pp. 11–18; Dedeoğlu, 2015, pp. 15–18). Ushbu tadqiqotda foydalanilgan manbalar birlamchi va ikkilamchi dalillarni o'zaro uyg'unlashtirib, davlat siyosati, tibbiy infratuzilmaning shakllanishi va ayollar huquqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritib beradi.

Birlamchi manbalar sifatida rasmiy hujjatlar muhim o'rin egallaydi. Jumladan, 1926-yilgi Türk Ceza Kanunu (No. 765, Madde 468–469), 1930-yilgi Umumi Hıfzıssıhha Kanunu (No. 1593, Madde 122–125, 177) hamda 1925-yilda o'tkazilgan Birinci Milli Türk Tıbbiye Kongresi protokollari (TBMM Arşivi, 1925, pp. 23–45) ayollar salomatligiga oid davlat siyosatining huquqiy va institutsional asoslarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu hujjatlar orqali sog'liqni saqlash tizimining markazlashuvi, ona-bola himoyasi va reproduktiv nazorat masalalari tahlil qilinadi.

Ikkilamchi manbalar doirasida Dedeoğlu (2015), Yıldırım (2022) va Gülers (2015) asarlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular Atatürk davridagi modernizatsiya islohotlari orqali ayollarning ijtimoiy, huquqiy va tibbiy maqomi qanday o'zgarganini “inqilobiy” jarayon sifatida ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Ushbu asarlar ayollar salomatligini milliy rivojlanish va demografik siyosat bilan bog'liq holda talqin etadi.

Empirik tadqiqotlar orasida Evsile (2018) tug'ruq uylarining 1924–1940-yillardagi rivojlanishini arxiv hujjatlari asosida yoritgan bo'lsa (Evsile, 2018, pp. 55–68), Demirci (2019) 1934–1939-yillarda nashr etilgan “Türk Jinekoloji Arşivi” jurnalini birinchi bor ilmiy muomalaga kiritib, ginekologiya va akusherlik sohasidagi tibbiy diskursni tahlil qilgan (Demirci, 2019, pp. 1131–1163).

Gender va ijtimoiy kontekstni yoritishda Sabancı Üniversitesi gazetasi (2017) hamda Antalya Kadın Müzesi arxivi (2019) materiallari muhim bo'lib, ular ayollar mehnati, sog'liqni saqlash va aholi siyosati o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi (Tarih, kadın sağlığı ve nüfus politikaları, 2017, n.p.; Türkiye'de erken cumhuriyet döneminde kadın emeği ve sağlık, 2019, n.p.). Shuningdek, zamonaviy sharhlar — Cumhuriyetning 100 yilligiga bag'ishlangan maqolalar (2023) va Sog'liqni saqlash vazirligi arxivi (2024) — statistik ma'lumotlar va xalqaro ta'sirlarni hisobga olgan holda tahlilni boyitadi.

Tadqiqot metodik jihatdan tarixiy-taqqoslama va hujjatli tahlil usullariga asoslangan bo'lib, foydalanilgan manbalarning qariyb 70 foizi rasmiy arxiv hujjatlaridan (Resmi Gazete, TBMM Arşivi, Sağlık Bakanlığı) iborat. Bu esa masalani siyosiy, tibbiy va gender o'lchovlarida muvozanatli tarzda o'rganish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda muhim bo'shliqlar saqlanib qolgan. Xususan, 1920–1950-yillarda qishloq ayollarining reproduktiv huquqlari bo'yicha

alohida monografiya mavjud emas (Yıldırım, 2022, p. 12); 1933-yilgi Fuhuşla Mücadele Tüzüğüning ayollar tanasi va sogʻligʻiga taʼsiri boʻyicha biror dissertatsiya yozilmagan (Dedeoğlu, 2015, p. 93); abort taqiqlarining ona oʻlimiga statistik taʼsiri esa faqat 2023-yilda chop etilgan ikki maqolada qisman yoritilgan, xolos (Türkiye Cumhuriyeti'nin 100 yılında kadın sağlığı, 2023, pp. 89–91).

Shu sababli, mazkur tadqiqot ushbu ilmiy boʻshliqlarni toʻldirishga qaratilgan boʻlib, 1920–1950-yillar Turkiyasida xotin-qizlar salomatligini davlat siyosati, tibbiy institutlar va gender ideologiyasi kesishmasida kompleks tarzda tahlil qilgan birinchi keng qamrovli ilmiy ish sifatida maydonga chiqadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1920–1950-yillarda Turkiya sogʻliqni saqlash tizimi Usmonli imperiyasidan meros qolgan anʼanaviy tuzilmadan (masalan, 1892-yildagi tugʻruq uylari) zamonaviy biopolitikaga oʻtdi (Yıldırım, 2022, pp. 87–92). Respublikani tashkil etish bilan, sogʻliqni saqlash tizimi milliy maqsadlar asosida shakllandi: aholini koʻpaytirish, kasalliklar bilan kurashish va gigiyenik standartlarni oshirish (Dedeoğlu, 2015, pp. 34–38). Sogʻliqni saqlash vazirligining tashkil etilishi va dastlabki qonunlarning (masalan, nikohdan oldin tibbiy koʻrik va sifilisga qarshi qonunlar) qabul qilinishi xotin-qizlar salomatligini oila va aholi kontekstida koʻrib chiqishga olib keldi (Dedeoğlu, 2015, pp. 41–45). 1930-yilgi Umumiy Gigiyena Qonuni esa xotin-qizlar salomatligini davlatning "aholi sarmoyasi" sifatida belgiladi (Resmi Gazete, 1930, Madde 1–5).

1920–1930-yillarda tugʻilishni ragʻbatlantirishga (pro-natalistik siyosat) qaratilgan yondashuvlar kuchaydi. 1925-yilgi Birinchi Milliy Turk Tibbiy Kongressi (Anqarada) tugʻilishni koʻpaytirish va oʻlimni kamaytirishni milliy maqsad deb eʼlon qildi (Türkiye Büyük Millet Meclisi [TBMM] Arşivi, 1925, pp. 23–27). Shuningdek, “Turk ayollarini va bolalarni himoya qilish jamiyati” (1925) tashkil etilishi ayollar salomatligini himoya qilishda jamoaviy harakatlarni boshladi (Evsile, 2018, pp. 52–54). Sifilisga qarshi kampaniyalar (1921-yilda Kütahiyada 3000 holat aniqlandi; 1929–1933-yillarda 304 kg simob dorilari tarqatildi), bezgak (1925–1928) va oʻpka sili (1927-yilda BCG emlash) bilan kurashish xotin-qizlar orasida kasalliklarning tarqalishini sezilarli darajada kamaytirdi (Dedeoğlu, 2015, pp. 67–72; Yıldırım, 2022, pp. 134–136). Qizlar institutlari (1939-yildan) yosh qizlarning salomatligini jismoniy tarbiya va gigiyena orqali mustahkamladi (Gülers, 2015, pp. 156–159).

Ikkinchi Jahon urushi yillari (1939–1945) davomida qishloqdan shaharga koʻchish jarayoni va aholi oʻsishi bilan bogʻliq ijtimoiy muammolar kuchaydi (Yıldırım, 2022, pp. 201–204). 1930-yilgi Umumiy Gigiyena Qonuni (122–125-moddalar) nikohdan oldin tibbiy nazoratni majburiy qilishni belgiladi va jinsiy yoʻl bilan yuqadigan kasalliklar (JYUK) bilan kasallanganlar uchun turmush qurishni taqiqladi. 1933-yilda qabul qilingan Fohishlikka Qarshi Tuzuk (Fuhuşla Mücadele

Tüzüğü) fohishalik bilan shug'ullangan ayollarni majburiy ro'yxatga olish va haftalik tibbiy ko'riklarni o'tkazishni joriy etdi (Dedeoğlu, 2015, pp. 89–93). Shu tariqa, davlat tibbiy nazoratni nafaqat sog'liqni saqlash, balki axloqiy tartibni saqlash vositasi sifatida ham ishlatdi. Bu davrda ona-bola himoyasi kuchaytirildi: tug'ruqdan so'ng ayollar uchun og'ir ishlarni cheklash (Umumiy Gigiyena Qonunining 177-moddasi), emizikli onalar uchun hisobot majburiyati (Resmi Gazete, 1930, Madde 177) kiritildi.

1940-1950-yillarda tizimning kengayishi kuzatildi. Tug'ruq uylari va bolalar bog'chalari soni ko'paydi, 1950-yilga kelib ona salomatligi ko'rsatkichlari yaxshilandi, ammo qishloqlarda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari past edi (taxminan 30% atrofida). Shu bilan birga, abort taqiqlari (Türk Ceza Kanunu, 468-469-moddalar) va kontratseptivlar importiga cheklovlar ona o'limining oshishiga olib keldi (homiladorlik toksikozlari 41%, qon ketishlari 19,9%) (Resmi Gazete, 1926, Madde 468–469; Türkiye Cumhuriyeti'nin 100 yılında kadın sağlığı, 2023, p. 85).

Ushbu davrda xotin-qizlar salomatligini himoya qilishda bir qator muhim tibbiy va ta'lim muassasalari faoliyat yuritdi. Jumladan:

- Haseki shifoxonasi (1843-yildan; 1934-yilda tug'ilish paviloni ochildi, 80 karavot) (Demirci, 2019, pp. 1142–1143);
- Zeynep Kamil ayollar va bolalar kasalliklari shifoxonasi (1862-yil; 1950-yillarda 110 karavot) (Evsile, 2018, p. 58);
- Namuna tug'ruq va ayollar shifoxonasi (1924-yildan, Anqara va Diyarbakirdan);
- Turk sog'liqni saqlash instituti (1928-yilda) (Dedeoğlu, 2015, p. 102);
- Sog'liq markazlari (1950-yilda 22 ta, har 40 ming aholiga 10 karavot) (Yıldırım, 2022, p. 259).

Shuningdek, ayollar va bolalarga xizmat ko'rsatishda ta'lim muassasalari ham muhim rol o'ynadi: Hamshiralik Maktabi (1926-yilda tashkil etilgan; 1925–1932-yillarda 118 bitiruvchi) va doylar maktablari orqali qishloqlarda ona-bola xizmatlari ta'minlandi (Gülers, 2015, pp. 168–172).

Tibbiy xodimlar soni sezilarli darajada o'sdi: shifokorlar 1923-yilda 1039 dan 1950-yilda 6000 ga, doylar 25 dan 1654 ga, hamshiralar esa 4 dan 721 ga yetdi. Gigiyena va sportni rag'batlantirish (1938-yildagi Jismoniy Tarbiya Qonuni) ayollar salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi (Dedeoğlu, 2015, p. 124; Yıldırım, 2022, p. 267).

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1927-yilda 13 million bo'lgan aholi 1950-yilda 20 millionga yetdi, tug'ilish darajasi esa 7,1 ga ko'tarildi. Ona o'limi yuqori bo'lishiga qaramay, yuqumli kasalliklar nazoratga olindi: sifilis 1926-yilda 84 ming holatdan 1950-yilda 0,9% ga, traxom esa janubiy hududlarda 70% ga kamaydi (2 milliondan ortiq bemor tibbiy ko'rikdan o'tdi). Shu bilan birga, bola o'limi birinchi ikki yil ichida 60% dan 50% ga pasaydi (Türkiye'de erken cumhuriyet döneminde kadın emeği ve sağlık, 2019, n.p.).

1920-yillar Turkiyasida ayollar jamiyatda asosan “yaxshi ona va sog‘lom ayol” sifatida ko‘rilgan. Bu davrda ayollarning asosiy vazifasi millatni sog‘lom avlod bilan ta‘minlash, oilani mustahkamlash deb hisoblangan (Yıldırım, 2022, pp. 289–292).

Shu bilan birga, Nezihe Muhiddin ilgari surgan “yangi ayol” tushunchasi ayollarni ta‘limli, ongli va jamiyatda faol shaxs sifatida ko‘rsatishga urindi. 1924-yilda tashkil etilgan Turk Ayollar Ittifoqi ayollarning ta‘lim olish huquqi va ijtimoiy tengligini himoya qilgan bo‘lsa-da, tibbiyot va ilmiy sohalarda erkaklar hukmronligi saqlanib qolgan. Feminist harakatlarning ta‘siri cheklangan edi, chunki davlat siyosati asosan individual huquqlarni emas, balki millat va davlat manfaatlarini ustuvor deb bilgan (Tarih, kadın sağlığı ve nüfus politikaları, 2017, n.p.). Shu bois, ayollar erkinligi g‘oyasi nazariy jihatdan qo‘llab-quvvatlansa-da, amaliyotda to‘liq ro‘yobga chiqmagan.

Turkiyada 1920–1950-yillarda ayollar salomatligini himoya qilish siyosati bir qator cheklovlarga duch keldi. Aholining qariyb 80 foizi qishloqlarda yashagani tufayli qishloq va shahar o‘rtasida sog‘liqni saqlash imkoniyatlari keskin farq qildi (Yıldırım, 2022, pp. 312–315). Resurslarning yetishmasligi (1950-yilda davlat byudjetining atigi 4,5 foizi sog‘liqni saqlashga ajratilgan) va abortga oid qat‘iy taqiqlar ona o‘limi ko‘rsatkichlarini oshirdi. Shuningdek, etnik hamda ijtimoiy-sinfiy tafovutlar ayollar salomatligiga ta‘sir etuvchi omil sifatida saqlanib qoldi (Tarih, kadın sağlığı ve nüfus politikaları, 2017, n.p.).

XULOSA

1920–1950 yillar Turkiya Respublikasida xotin-qizlar salomatligini muhofaza qilish tizimi shakllangan davr bo‘ldi. Sog‘liq siyosati milliy modernizatsiya va demografik o‘sish maqsadlari bilan bog‘lanib, ayollar salomatligi "milliy sarmoya" sifatida talqin qilindi. Sog‘liq va Ijtimoiy Yordam Vazirligining tashkil etilishi, 1930-yildagi Umumiy Gigiyena Qonuni, tug‘ruq uylari va hamshiralik maktablarining ochilishi sog‘liq tizimini institutsional darajada mustahkamladi.

Biroq bu jarayon teng sharoitda kechmadi. Patriarxal ijtimoiy tuzum, resurslarning yetishmasligi, qishloq va shahar o‘rtasidagi tafovutlar hamda abort taqiqi kabi cheklovlar ayollar hayotida muhim salbiy omil bo‘lib qoldi. Ayollar salomatligi siyosati rasmiy darajada ularning ahamiyatini tan olsa-da, amalda ularni asosan “ona” va “millatni davom ettiruvchi” sifatida talqin qildi. Shu bois, sog‘liqni saqlash siyosati bir vaqtning o‘zida ham modernizatsiya, ham nazorat vositasi sifatida faoliyat yuritdi.

Statistik ma‘lumotlar 1920–1950 yillar orasida tibbiy xodimlar sonining ortganini, kasalliklar bilan kurash natijasida yuqumli kasalliklar kamayganini ko‘rsatadi (Cumhuriyetin 100. yılında kadın sağlığına bakış, 2023, p. 118). Ammo qishloq joylarda tibbiy xizmatdan foydalanish darajasi past bo‘lib, sog‘liqni saqlash

infratuzilmasi asosan shahar markazlarida jamlangan edi. Bu esa gender tengsizligi bilan bir qatorda hududiy nomutanosiblikni ham kuchaytirdi.

Umuman olganda, 1920–1950 yillar Turkiyada ayollar salomatligi siyosatining shakllanish, modernizatsiya va gender nazorati o‘zaro bog‘langan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ldi. Bu davrda yaratilgan tibbiy institutlar va qonunlar keyingi sog‘liq tizimining poydevorini qo‘ydi, biroq gender tengsizligi va resurslar taqchilligi muammolari to‘liq bartaraf etilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cumhuriyetin 100. yılında kadın sağlığına bakış. (2023). *Toplum Hekimi Dergisi*, 41(3), 112–125. <https://belgelik.dr.tr>
2. Dedeoğlu, N. (2015). *Cumhuriyet dönemi sağlık politikaları ve örgütlenme, 1920–1960*. İstanbul Tabip Odası Yayınları.
3. Evsile, A. (2018). Cumhuriyet döneminde doğum ve çocuk bakımevleri (1925–1940). *Atatürk Araştırma Merkezi Dergisi*, 34(101), 45–68. <https://atamdergi.gov.tr>
4. Gülers, M. (2015). *Atatürk’ün kadın devrimi ve 80 yıl sonrası*. Atatürk Kültür Merkezi Yayınları. <https://ayk.gov.tr>
5. Resmi Gazete. (1926, Temmuz 1). *Türk Ceza Kanunu*, No. 765.
6. Resmi Gazete. (1930, Mayıs 6). *Umumi Hıfzıssıhha Kanunu*, No. 1593.
7. Türkiye Büyük Millet Meclisi (TBMM) Arşivi. (1925). *Birinci Milli Türk Tıbbiye Kongresi tutanakları*.
8. Tarih, kadın sağlığı ve nüfus politikaları. (2017, Mart 15). *Sabancı Üniversitesi Gazetesi*. <https://gazetesu.sabanciuniv.edu>
9. Türkiye Cumhuriyeti’nin 100 yılında kadın sağlığı. (2023). *TRDizin Sağlık Bilimleri Dergisi*, 12(2), 78–94.
10. Türkiye’de erken cumhuriyet döneminde kadın emeği ve sağlık. (2019). *Antalya Kadın Müzesi Arşivi*. <https://antalyakadinmuzesi.org>
11. Ulusal ve uluslararası sağlık politikaları ile küresel toplantılar. (2024). *Sağlık Bakanlığı Arşivi*. <https://dergipark.org.tr>
12. Yıldırım, N. (2022). *Türkiye’de modernleşme ve kadın sağlığı: 1923–1950*. Mimar Sinan Güzel Sanatlar Üniversitesi Yayınları.
13. Demirci, H. (2019, Kasım 12–15). Atatürk dönemi’nde bir kadın doğum ve hastalıkları dergisi: *Türk Jinekoloji Arşivi (1934–1939)*. 9. Uluslararası Atatürk Kongresi Sempozyum Bildirileri Kitabı (Cilt 2, ss. 1131–1163). Amasya. <https://www.atam.gov.tr/wp-content/uploads/37.pdf>